

(17,4% holatida 12–14%+) yuqori saqlashi mumkin. Raqamli monitoring prototipi aniqlash kechikishini kunlik darajaga qisqartirdi, bu 2025–2026 yillardagi yuqori tranzaksiya faolligi sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqilgan PXI O'zbekiston uchun moslashtirilgan, amaliy va real vaqtga asoslangan vosita bo'lib, global standartlarni (UBS GREBI 2025, GSADF) mahalliy sharoitlar (ma'lumotlar cheklanganligi, norasmiy sektor, subsidiyalar) bilan uyg'unlashtiradi. U Markaziy bank va tijorat banklari uchun makroprudensial choralar (masalan, kredit cheklovlari, DSTI/LTV me'yorlari kuchaytirish) ni vaqtida qo'llash imkonini beradi. Kelgusida PXI ni tijorat ko'chmas mulkiga kengaytirish, sun'iy intellekt bashorat modellarini (masalan, deep learning orqali narx prognozi) qo'shish, transchegaraviy ta'sirlarni (migrant pul o'tkazmalari) hisobga olish va "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida raqamli platformani milliy darajada joriy etish mumkin. Umuman olganda, PXI ga asoslangan raqamli monitoring tizimi uy-joy pufaklariga qarshi chidamlilikni oshirib, barqaror kredit o'sishi, NPL pasayishi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu raqamli iqtisodiyotning afzalliklaridan samarali foydalanish orqali O'zbekiston bank tizimining tizimli xatarlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Shiller R.J. Irrational Exuberance. Princeton University Press, 2015.*
2. *IMF Global Financial Stability Report, 2022–2025.*
3. *UBS Global Real Estate Bubble Index 2025. <https://www.ubs.com/global/en/wealthmanagement/insights/global-real-estate-bubble-index.html>*
4. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhlari va yillik hisobotlar, 2025–2026.*
5. *Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). Uy-joy bozori sharhlari, 2025–2026.*

ISLOMIY MOLIYANING MARKAZIY OSIYODAGI TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTON MOLIYAVIY TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna,
TDIU tayanch doktoranti,

Markaziy Osiyo mamlakatlarida islomiy moliyaning kirib kelishi dastlab 1990-yilda Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng boshlandi. Mintaqalarda islomiy moliya sanoatining rivojlanishi ITB a'ziligiga qo'shilganidan so'ng boshlandi, deb hisoblash mumkin. Birinchi bo'lib ITBga 1993-yilda Qirg'iziston, 1994-1996-yillar mobaynida Qozog'iston va Tojikiston birin-ketin a'zolikka qabul qilindilar. Faqat "O'zbekiston esa eng oxirgi bo'lib, 2004-yilda 13,4 million ID (islomiy dinor) kapitali bilan 55-a'zo bo'lgan. Bu ITBning umumiy kapitalidagi 0,03 foiz ulushini

tashkil²⁶¹ qilsa, 0,12 foiz kapital ulushi bilan Qozog'iston bankning Markaziy Osiyodagi eng yirik manfaatdor tomoni hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda esa Tojikiston va Qirg'izistonning ulushi 0,06 foizni tashkil etadi. Markaziy Osiyo mintaqasida musulmonlarning ulushi umumiy aholining 85 foizini tashkil etib, 2023-yilda islomiy moliya aktivlari 699 mln dollarga yetib, bu global jami aktivlarning 0,01 foizni tashkil etadi.

“Qozog'iston global islom moliya sanoatining rivojlanish ko'rsatkichi bo'yicha 2024-yilda 19-o'rinni egallab, Markaziy Osiyo bozorida yetakchilik qilmoqda. Qirg'iziston 32-o'rin, O'zbekiston 63-o'rin va Tojikiston esa 82-o'rinlarni qayd etishgan, Turkmaniston esa ancha ortda qolib, 111-o'rinni egallagan²⁶². Mintaqada bugungi kunda 18 ta to'liq faoliyat yurituvchi islomiy banklar va islomiy bank darchalar, 14 ta islomiy nobank kredit moliya institutlari, ko'plab takaful operatorlari, investitsiya va lizing kompaniyalari hamda islomiy FinTechlar faoliyat yuritmoqda. Biroq, sukuk kabi islomiy kapital bozori instrumentlari islomiy moliya institutlariga nisbatan sekinroq rivojlanmoqda.

Qozog'istonning islomiy bankchilik sektori aktivlari “2033-yilga borib, 3,3 mlrd dollarga yetishi, 2028-yilda 1,2 mlrd dollar atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda”²⁶³. Sukuk bozoriga kelsak, yaqin yillarda birinchi emissiyalar joriy etilishi rejalashtirilayotgani sababli, sukuk aktivlar sinfi ham o'sishi kutilib, sukuk bozorining jami hajmi 2028-yilda 1,3 mlrd dollarga, 2033-yilda esa 3,4 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Qozog'istondagi mavjud islom banklarining umumiy aktivlari esa 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 621 mln dollarni tashkil etgan. Bu sezilarli o'sish edi, 2022-yildagi qiymatlar 208 mln dollarni qayd etib, 2025-yildagi qiymat bilan taqqoslaganda 3 baravar o'sishni ko'rsatmoqda. Qozog'istonda hozirda 2 ta islomiy bank faoliyat yuritib, ularning ulushi 0,3-0,4 foizni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qirg'iziston birinchi bo'lib 1993-yilda ITBga a'zo bo'lgan. Qirg'izistonda islom moliya tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi ilk ixtisoslashgan islomiy bank yigirma yillar oldin xalqaro moliya tashkilotlari ko'magida shakllanib, hozirda mamlakatdagi yagona bank hisoblanadi. Mamlakatda 5 ta an'anaviy bank islomiy darchalari, shuningdek, islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatuvchi 11 ta nobank moliya institutlari mavjud bo'lib, ulardan 6 tasi islomiy mikrokredit kompaniyalari, 3 ta islomiy darchaga ega mikrokredit kompaniyalari, 1 ta islomiy kredit ittifoqi va 1 ta islomiy darchaga ega mikrokredit agentligi mavjud. Qirg'izistonda islom iqtisodiyot tamoyillar asosidagi moliyalashtirish hajmi 2023-yilda 6,1 mlrd so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 1,3 baravar oshgan. Mamlakatdagi islomiy bank aktivlari esa 2024-yilda 59 mln AQSh dollarga yetgan.

²⁶¹ Irgasheva G. O'zbekistonda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb etishning huquqiy jihatlari. “O'zbekiston sug'urta bozori” ilmiy-amaliy jurnali, №6, 2024-y. DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a10. <https://insurance.tsue.uz>

²⁶² Islomiy moliya rivojlanishi to'g'risidagi hisobot (IFDR) 2024

²⁶³ [EDB ISDB 2025 Central-Asia Islamic Finance Report EN \(2\).pdf](#)

Qirg'iziston islomiy moliya qonunchiligi va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yetakchilikka intilmoqda. Bunga dalil sifatida davlatning islomiy arzon uy-joy moliyalashtirishini joriy etish tashabbusini keltirish mumkin. "Qirg'iziston hukumati "My house 2021–2026" dasturi doirasida aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida Davlat ipoteka kompaniyasi (OAJ) va Bakai Bank OJSC o'rtasida islomiy uy-joylarni qurishni moliyalashtirish bo'yicha kelishuv imzolandi"²⁶⁴. Mazkur tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida faqatgina Qirg'izistonda davlat mablag'larini islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida mintaqada birinchi islomiy arzon uy-joy moliyalashtirish loyihasi hisoblanadi.

1-jadval

Markaziy Osiyoda Islom taraqqiyot banki (ISTB) guruhi loyihalari va moliyalashtirishi (2024-yil yakuniga ko'ra)²⁶⁵

Mamlakat	Jami loyihalar	Yakunlangan loyihalar	Amaldagi (faol) loyihalar	ISTBG umumiy moliyalashtirishi (mlrd AQSH dollari)
Qozog'iston	74	57	17	1.656
Qirg'iziston	82	63	19	0.554
Tojikiston	105	72	33	0.825
Turkmaniston	33	17	16	1.387
O'zbekiston	168	73	95	3.974
Markaziy Osiyo bo'yicha jami	462	282	180	8.396

Tojikiston 1996-yilda ITB a'zoliciga kirib, mamlakatdagi ilk islomiy bank Tawhid Bank esa 2019-yilda an'anaviy bankdan islomiy bankka aylantirildi. Tojikiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda shariat tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi 1 ta islomiy bank, 2 ta islomiy darcha islomiy moliya segmentida faoliyat ko'rsatuvchi mikrocredit tashkilotlariga tegishli 5 ta filial, 1 ta ijara kompaniyasi hamda 33 ta bank xizmat ko'rsatish markazi faoliyat yuritmoqda. Tojikistonda islomiy bank aktivlari 2028-yildagi 132 million AQSH dollaridan, 2033-yilda 562 million AQSH dollariga qadar o'sishi prognoz qilinmoqda. Sukuk bozori ham rivojlanishi kutilmoqda, muomaladagi sukuk hajmi 2028-yilda 57 million AQSH dollariga, 2033-yilda esa 155 million AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida ITBiga eng kech 2003-yilda a'zo bo'lgan. Kech a'zo bo'lganiga qaramay, mamlakatda musulmon aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan islomiy moliya industriyasini shakllantirish va kengaytirish jarayoni faol olib borilmoqda.

²⁶⁴ Daniyar Mamyrov. Islamic finance in Kyrgyzstan: From pilot project to sustainable Islamic financial system. dmamyrov@gmail.com Kyrgyzstan. December 2025. Page 126

²⁶⁵ ITB guruhi (operatsiyalar boshlangan davrdan 2024-yil 30-iyungacha bo'lgan ma'lumotlar). <https://eabr.org/upload/iblock/ca2/EDB ISDB 2025 Central-Asia Islamic Finance Report EN.pdf>

ITB guruhi va O'zbekiston o'rtasida ma'qullangan loyihalarning bugungi kungacha umumiy moliyaviy hajmi 3,9 milliard AQSh dollaridan oshdi. Ushbu mablag'larning asosiy qismi taxminan 3,0 milliard AQSh dollari bevosita ITB hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan moliyalashtirish manbalari sifatida XISMK tomonidan 565 million dollari, XSRIK tomonidan esa 750 million dollari miqdorida mablag' ajratilgan. ITB guruhi tomonidan jalb qilingan ushbu moliyaviy resurslar hisobidan respublikaning turli hududlarida jami 168 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ularning 73 tasi to'liq yakunlangan, 95 tasi esa hozirgi kunda ijro etilish bosqichida qolmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar ITB guruhining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi faol va barqaror ishtirokini aks ettiradi.

Prognozlarga ko'ra, O'zbekistonda islomiy moliya aktivlarining umumiy hajmi 2028-yilga kelib 1,1 milliard AQSh dollariga yetishi, 2033-yilda esa ushbu ko'rsatkich 2,4 milliard AQSh dollarigacha oshishi kutilmoqda. Shu bilan birga, islomiy kapital bozorining muhim segmenti hisoblangan sukuk bozorining ham jadal sur'atlarda rivojlanishi bashorat qilinmoqda. Xususan, muomaladagi sukuk qimmatli qog'ozlari hajmi 2028-yilda 601 million AQSh dollarini tashkil etishi, 2033-yilga borib esa 1,9 milliard AQSh dollariga yetishi taxmin qilinmoqda.

Xulosa sifatida, biz Markaziy Osiyo mintaqalarida islom moliyasining bugungi tendensiyalarini o'rganib chiqishimiz natijasida O'zbekiston uchun bir qator holatlarni tajriba sifatida foydalanish mumkinligiga amin bo'ldik:

1. O'zbekistonda ham Qozog'iston tajribasidan foydalangan holda, Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) ga o'xshash maxsus xalqaro moliya markazini tashkil etish zarur. Bunday markaz islom moliyasi instrumentlarini joriy etish, xorijiy investorlarni jalb qilish va xalqaro moliyaviy standartlarni tatbiq etishda muhim platforma bo'lib xizmat qiladi;

2. Qirg'iziston tajribasidan kelib chiqib, davlat tomonidan islom iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan arzon uy-joylarni moliyalashtirish tashabbuslarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, "My House 2021-2026" dasturiga o'xshash dasturlarni ishlab chiqish orqali aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini arzon uy-joy bilan ta'minlash mumkin. Albatta, bunday loyihalarni amalga oshirishda eng avvalo sohaga oid huquqiy-me'yoriy bazani shakllantirish, shuningdek, taklif etilayotgan tajriba dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi;

3. Kadrlar salohiyatini oshirish va oliy ta'lim muassasalarida islom moliyasi bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish lozim. Bu sohada malakali mutaxassislarning yetishmasligi bozor rivojiga to'sqinlik qilmasligi uchun xalqaro tajribaga asoslangan ta'lim tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

4. Aholi va tadbirkorlar o'rtasida islom moliyasi mahsulotlari haqida xabardorlikni oshirish muhimdir. Axborot-tushuntirish ishlari, seminar va forumlar orqali islom moliyasining afzalliklarini keng targ'ib qilish ushbu tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va bozor hajmining kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Irgasheva G. O'zbekistonda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb etishning huquqiy jihatlari. "O'zbekiston sug'urta bozori" ilmiy-amaliy jurnali, №6, 2024-y. <https://insurance.tsue.uz>
2. Islomiy moliya rivojlanishi to'g'risidagi hisobot (IFDR) 2024
3. [EDB ISDB 2025 Central-Asia Islamic Finance Report EN \(2\).pdf](#)
4. Daniyar Mamyrov. Islamic finance in Kyrgyzstan: From pilot project to sustainable Islamic financial system. dmamyrov@gmail.com Kyrgyzstan. December 2025. Page 126
5. [https://eabr.org/upload/iblock/ca2/EDB ISDB 2025 Central-Asia Islamic Finance Report EN.pdf](https://eabr.org/upload/iblock/ca2/EDB_ISDB_2025_Central-Asia_Islamic_Finance_Report_EN.pdf)
6. Zayniddinov R.X. Qozog'istonning islom moliyasi borasidagi tajribasidan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari. // O'zbekiston sug'urta bozori. 9-son, 2024-y. 9-bet.

MOLIYA BOZORLARINI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ISLOM MOLIYA MUASSASALARI O'RNI

Qaxramonova Gulandom Qodirali qizi,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya. Maqolada islom moliya tizimi mohiyati va undagi islom moliya tashkilotlari faoliyati haqida umumiy tushunchalar berilgan. Shu bilan birga, islom moliya tashkilotlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati haqida qisqacha to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlari: Islom moliyasi, islom moliya muassasalari, ribo, g'arar, real aktivlar, risk bo'lishish, halol inestitsiyalar, mushoraka va mudoraba, murobaha, salam va istisno.

So'ngi yillar mobaynida jahon moliya tizimida muqobil moliya modellarining ahamiyati oshib bormoqda. Global iqtisodiy inqirozlar, qarzga asoslangan iqtisodiyotning beqarorligi hamda spekulativ operatsiyalarning oshishi natijasida yangi barqaror va axloqiy moliya tizimalari ehtiyojini oshirdi. Shunday tizimlardan biri bu islom moliya tizimidir. Islomiy moliya tizimi muqobil moliya tizimi sifatida nafaqat o'zining ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish balki, asosiy maqsad foyda olish, iqtisodiy adalotni ta'minlash bilan birgalikda real iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qilishdir.

Islom moliya tizimining mohiyati bu moliyaviy munosabatlarning Shariat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etuvchi tizim bo'lib, u²⁶⁶:

- Riskni bo'lishish tamoyiliga asoslanadi;

²⁶⁶ Islom moliyasi asoslari/S.M.Dusanov.-Toshkent,2024.-16b.